



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY

CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2026 Issue 1

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

**Jamiyat birdamligini taminlashda jamiyat va shaxs munosabati****Ismoilova Surmaxon Amonovna,**

“University Of Economics And Pedagogy” NOTM

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi dotsenti.

Tel. (90) 543-09-67

Annotatsiya: Jamiyat birdamligini ta‘minlaydigan omillarni tahlil qilish, ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarning o‘zaro aloqalarini o‘rganishga qaratilgan. Ushbu maqolada jamiyatda birdamlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy omillar: ijtimoiy adolat, madaniy xilma-xillikni qabul qilish, ta‘lim, ijtimoiy himoya, siyosiy barqarorlik, tinchlik va xavfsizlik kabi jihatlar yoritilgan. Shuningdek, ommaviy kommunikatsiya va axborot vositalarining jamiyatdagi roli va ijtimoiy aloqalar ham muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqola jamiyat birdamligini rivojlantirishda amaliy yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: jamiyat birdamligi, ijtimoiy adolat, madaniy xilma-xillik, ta‘lim, ijtimoiy himoya, siyosiy barqarorlik, tinchlik, xavfsizlik, ommaviy kommunikatsiya, axborot vositalari, ijtimoiy aloqalar, hamkorlik, barqaror rivojlanish.

Bugungi kunda Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yishni o‘z oldiga ezgu maqsad qilib qo‘ygan yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik, degan purma‘no g‘oya yurtodoshlarimizning ongu tafakkurida, ularning hayotiy qarashlarida o‘zining yorqin ifodasini topyapti desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi va xalqimiz birdamligi asosida qabul qilingan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” asosidagi yangilanishlar, xalqimiz hayotidagi farovonlik va mamlakat taraqqiyotida o‘z natijasini ko‘rsatmoqda. Mazkur Harakatlar strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri Xavfsizlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat etib belgilanganligini ko‘rish mumkin. Bugun shu asosda aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millatlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlikni, yaqin qo‘shnichilikdagi do‘stona aloqalarimizni mustahkamlashga qaratilgan ezgu ishlar olib borilayapti desak aslo yanglishmaymiz.[2. 6-son, 70-modda].

1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren davlat qaror topganligini ifodalagan holda Konstitutsiya o‘zida inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini mujassam etgan bu demokratik g‘oya zamonaviy huquq tizimining poydevoriga aylandi.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari davlat va xalq o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tab, yangi islohotlarga ilhom beradi. Xolis va tezkor ommaviy axborot vositalari davlat va jamiyatning bosh vazifasi hisoblanmish xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilishga, yurtimizda yashayotgan, millati, tili va



dinidan qat'i nazar, har bir insonga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish ulkan ahamiyat kasb etadi. Ushbu ezgu maqsad yo'lida barcha vatandoshlarimiz bir tanu bir jon bo'lib harakat qilishi, ayniqsa yoshlarimizni yangi O'zbekiston bunyodkori bo'lib maydonga chiqishidan katta umid qilamiz. Prezidentimizga kamarbasta bo'lgan holda betakror yurtimizni tinchlik-osoyishtaligini saqlashda faol bo'lamiz.[2.4-b.]

Jamiyat birdamligi – bu uning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy barqarorligining asosi hisoblanadi. Bir-birini tushunish, hurmat qilish va o'zaro qo'llab-quvvatlash jamiyatning muhim tamoyillaridan biridir. Jamiyat birdamligi, ayniqsa, ijtimoiy barqarorlikni saqlash, madaniy xilma-xillikni qabul qilish, adolatni ta'minlash va teng huquqlilikni targ'ib qilish kabi masalalar bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda jamiyatlar o'rtasida turli xil madaniyatlar, g'oyalar va diniy e'tiqodlar mavjud bo'lib, bu xilma-xillik o'zaro aloqalar va hamkorlikni murakkablashtiradi. Biroq, ushbu xilma-xillikni jamiyat birdamligini kuchaytirish uchun imkoniyat sifatida ko'rish zarur. Madaniy, siyosiy va iqtisodiy omillar birgalikda jamiyatdagi birdamlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur maqolada jamiyat birdamligini ta'minlashda asosiy omillar, ularning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri va jamiyatda birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan strategiyalar o'rganiladi. Ijtimoiy adolat, madaniy xilma-xillikni qabul qilish, ta'lim va ijtimoiy himoya tizimlari kabi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy barqarorlik va xavfsizlik, tinchlikni ta'minlashning jamiyat birdamligiga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqiladi. Bu omillarni samarali boshqarish, jamiyatdagi o'zaro ishonchni oshirishga yordam beradi va birdamlikni rivojlantiradi.

Jamiyat va shaxs munosabatini shakllantirishda insonparvarlik haqida ham to'xtalib o'tmoqni joiz deb bildik. Insonparvarlik odamzodning qadri, uning erkinligi qobilyatlari har tomonlama nomoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi. Buyuk adiblarimizning fikricha, insonparvarlik – insonning sharafi, vijdoni va imonning mahsuli hisoblanadi. Insonparvarlik g'oyalari, baxt-saodat va adolatga erishish orzu-havaslari, xalq og'zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy falsafiy, pedagogik ta'limotlarda uzoq o'tmishdan beri o'z aksini topib kelmoqda. Insonparvar ta'lim - umuminsoniy qadriyatlar, insonning hayoti va sog'lig'i, shaxsning erkin rivojlanishi ustuvorligi tamoyillariga asoslangan ta'limdir tgan [4, 6-b.].

Mahalla jamiyat birdamligini ta'minlashda asosiy omillarlsrdan biri hisonlanadi, chunki, ma'naviy muhit shaxsni ham, butun avlodni ham muayan yo'nalishda shakllantiradi, tarbiyalaydi, ijobiy hislatlarni yuzaga chiqaradi, ularni nomaqbul ta'sirlardan himoya qiladi.

Tursunov X. o'zining “Jamiyat va taraqqiyot” jurnalining 5-sonida bergan “*Jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy adolat*” nomli maqolasida “Ijtimoiy adolat jamiyatning birdamligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Barcha fuqarolarga teng huquqlar, imkoniyatlar yaratish, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar



o'rtasida adolatli taqsimotning mavjudligi jamiyatda birdamlikni mustahkamlashga yordam beradi. Ijtimoiy tenglikni ta'minlash, ijtimoiy guruhlar o'rtasida ziddiyatlarni kamaytiradi va jamiyatni birlashtiradi" deb ta'kidlab o'tgan [5, 38-40-b.].

Shuxratov R. "Ijtimoiy tadqiqotlar" jurnalidagi **"Madaniy xilma-xillik va jamiyat birdamligi"** maqolasida "Jamiyatda turli madaniyatlar, millatlar, dinga va irqga oid farqlarni qabul qilish, hurmat qilish jamiyat birdamligini oshiradi. Madaniy xilma-xillikni qadrlash va uni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy birlashuvni kuchaytiradi va jamiyatning ko'p qirraliligini " deb aytib o'tadi [7.12 (3), 45-47-b.].

Ta'lim jamiyatni birdamlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Insonlar orasidagi hurmat, tushunish va hamkorlik aynan ta'lim jarayonida rivojlanadi. O'qitish va tarbiya orqali jamiyatdagi yoshlar orasida birdamlik, bag'rikenglik va umummilliy qadriyatlarni shakllantirish mumkin.

Ijtimoiy himoya tizimi, jamiyatdagi kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga yordam berish, jamiyatda birdamlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy yordam va xayriya ishlarining rivojlanishi ham jamiyatni birlashtiradi va ijtimoiy barqarorlikni saqlaydi.

Jamiyatdagi aloqalar va hamkorlik o'zaro ishonch va hamjihatlikni rivojlantiradi. Jamiyatda tenglik, do'stlik va bir-birini qo'llab-quvvatlash orqali jamiyat a'zolari o'rtasida birdamlik o'sadi.

Jamiyat birdamligini ta'minlashda ommaviy axborot vositalari (televizion dasturlar, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlar va hokazo) muhim ahamiyatga ega. Yaxshi axborot va kommunikatsiya tizimi jamiyatni birlashtiradi va umumiy maqsadlarni ilgari surish uchun imkoniyat yaratadi, xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish kerakki, insoniy jamiyatlar alohida tamaddunlar, ya'ni sivilizatsiyalar negizida, muayyan qadriyatlar tizimi poydevorida tashkil topdi. Ularning barchasida umumiy foyda uchun harakat qilish, ota-onani ulug'lash, oilaviy rishtalarni mustahkamlash kabi bashariyat uchun umumiy hisoblangan qadriyatlar mavjud. Shu tariqa, ma'naviyat va axloq me'yorlarini belgiladi deyishimiz mumkin.

Jamiyat birdamligini ta'minlash jamiyatning barqarorligini va taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashda madaniy xilma-xillikni qabul qilish, ijtimoiy adolat va teng huquqlilikni ta'minlash muhim omillar hisoblanadi. Shuningdek, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy himoya tizimlari va ommaviy kommunikatsiya vositalari jamiyat birdamligini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

Jamiyat birdamligini ta'minlashda ijtimoiy tizimlarni takomillashtirish, teng huquqlilikni amalga oshirish va turli guruhlar o'rtasida o'zaro ishonchni oshirish zarur. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ta'lim, madaniy farqlarni hurmat qilish va jamiyatdagi barcha qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratish muhim hisoblanadi.



Kelajakda jamiyat birdamligini kuchaytirish uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etish, madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga e'tibor qaratish zarur. Bu omillar jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlashga va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashga bevosita yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2020 yil, 4-b.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi/ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Akramov, T. Ijtimoiy barqarorlik va tinchlik. O'zbekiston ijtimoiy fanlar akademiyasi nashri, 2017.
4. Hamdamova M. Ma'naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirish texnologiyasi). T., «Fan va texnologiya», 2008, 224 bet.
5. Tursunov, X. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiy adolat. Jamiyat va taraqqiyot jurnali, 2017, 5 (2), 38-40 sahifa.
6. Xusainov, A. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va madaniy xilma-xillikni boshqarish. O'zbekiston davlat universiteti nashri, 2016.
7. Shuxratov, R. Madaniy xilma-xillik va jamiyat birdamligi. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 2018, 12 (3), 45-47 sahifa.